

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11498438>

To'xtanazarov Ilhom Ibragimjanovich

Farg'ona davlat universiteti Harbiy ta'lif fakulteti oqituvchisi

Annotatsiya: Vatanparvarlik – umuminsoniy qadriyatdlarga sodiqlikning asosiy tamoyillaridan biri hisoblanadi. «Vatan» arabcha so'z bo'lib, o'zbek tilida «Ona yurt» degan ma'noni anglatadi. Vatanga muxabbat, yurtga muxabbat har bir millat kishisiga xos bo'lgan muqaddas qadriyatdir. Vatanparvarlik har bir kishida o'z uyiga, tug'ilib o'sgan yurtiga, ota-ona va opa-ukalariga bo'lgan munosabatida aks etadi. Vatanparvarlik – bu umuminsoniy qadriyatatlarga xos bo'lib u sadoqat bilan xizmat qilish, uning sarxadlarini tashqi dushmanlardan himoya qilish, uning mustaqilligi, obodligi, tinchligi, osoyishtaligini saqlashda faol ishtirok qilmoqdir.

Аннотация: патриотизм – один из основных принципов верности общечеловеческим ценностям. » Ватан « - арабское слово, означающее» Родная земля » на узбекском языке. Любовь к Родине, любовь к Родине-священная ценность, присущая каждому народу. Патриотизм отражается в каждом человеке в отношении к своему дому, родному краю, родителям, братьям и сестрам. Патриотизм присущ общечеловеческим ценностям, он заключается в преданном служении, защите своего народа от внешних врагов, активном участии в сохранении его независимости, процветания, мира, умиротворения.

Annotation: patriotism is one of the basic principles of commitment to universal values. "Vatan "is an Arabic word meaning" motherland " in Uzbek. Love for the motherland, love for the land is a sacred value inherent in a person of every nationality. Patriotism is reflected in everyone's attitude towards their home, the country where they were born and raised, and their parents and sisters. Patriotism is inherent in universal values, it is faithfully serving, protecting its sarkhads from external enemies, actively participating in maintaining its independence, prosperity, peace, tranquility.

O'zbekiston fuqarolarining vatanparvarligi ularning Vatanni xis qilishida, Vatanga bo'lgan tuyg'usida ifodalananadi. «Vatan hissi – shu Vatanning egasi bo'lmish xalqni bilishdan, uning qadriga yetishdan, nimalarga qodirligini tan olishdan, buyukligini e'tirof etishdan boshlanadi. Vatan va xalq egizak. Birini xis uchun ikkinchisini bilmok kerak. O'zbekiston deganda o'zbek xalqini, o'zbek xalqi deganda o'zbekistonni tushunmok kerak. Birisiz ikkinchisini xis qilish mutlaqo mumkin emas.» (I.Karimov «Vatan tuygusi», 146 bet)

Darhaqikat, Vatan tuygusini o'zida mujassam etgan kishigina jamiyat va xalq manfaati, uning baxti-saodati uchun kurashadi. O'zbekistonda yashovchi Davlatimizni umumbashariyatga o'zining faolligi bilan tanishtiradi va xalqlarimiz o'rtasida inoqlik va

o'zaro hurmatni mustahkamlashda yagona maqsad sari intilmogi kerak. Ayniksa yoshlarni, usib kelayotgan yosh avlodni yangilanayotgan demokratik, insonparvarlik jamiyatga munosib kilib tarbiyalash, maktab, bogcha, kollej, faoliyati davr talablari, yangi pedagogik texnologiya asosida tashkil kilishini talab kiladi. Shuning uchun chukur mas'uliyatni xis kiluvchi, mustakil fikrlaydigan Vatan tuygusi bilan xamnafas bulib yashaydigan yoshlarni tarbiyalash ukituvchi, tarbiyachilarning asosiy vazifasidir.

Vatanparvarlik – umuminsoniy qadriyatlarga bo'lган sodiqlikning negizi sifatida hayotimizni farovon va erkin qilish yo'lida, yurtimiz uchun, xalqimiz uchun jon fido etishga tayyor bo'lган yoshlarni voyaga yetkazishni talab qiladi.

Qadimgi yunon adiblaridan biri «Vatan sha'niga» asarida: «mening bu gaplarim g'oyat eski gapdir, lekin haqiqat shunday: o'z otasini hurmat qilmagan farzand o'zganining otasini ham hurmat qila olmaydi, o'z Vatanini sevmagan kishi uzga Vatanni qadrlay olmaydi» deb yezgan edi. Bu gaplar hozir naqadar zamonaviydir.

Vatan – bu odamlar tug'ilib o'sgan, tarbiyalangan, mehnat quvonchini totgan, shu odam mansub bo'lган xalq tarixi bilan bog'langan, hamda tarixdan shakllangan ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy muhitdir.

Vatanparvarlik vatanga muhabbat, unga sodiqlik, uning manfaatlari yo'lida hizmat qilishga tayyor turish demakdir. Vatanparvarlik ijtimoiy, tarixiy, ahloqiy his-tuyg'u sifatadi odamning ijtimoiy taraqqiyoti davomida paydo bo'ladi. Ijtimoiy jamoa tuzumida vatanparvarlik faqat o'z urug'lariga, ona yerga, ona tilga, urf-odatlarga bog'lik his bo'lган bo'lса, sinflar paydo bo'lishi bilan vatanparvarlik g'oyalari chuqurlashib, ijtimoiy hayot tobora ko'proq sohalariga chuqurroq kirib berdi. Vaqtlar o'tishi bilan bu tuyg'u buyuk kudratga aylandi. Buyuk mutaffakirlar «Biz tugilgan yurtimizdan uzok ketsak, bizni tortib kelaturgon kuvvat uz vatanimizning, ona tuprokning mexr-muxabbatidir».

Bu haqida ko'pdan ko'p maqollar ham bordir:

«Bulbul chamanini sevsа, odam Vatanni»

«Onaga bo'lган muhabbat – Vatanga bo'lган muhabbatning kurtagi»

«Kim onasini sevmagan, kim Vatanini sevmagan»

«Har kimning o'z elati o'ziga shirin»

Vatanparvarlik tufayli Vatanimiz jahonga tanilmoqda. Sportdagи, san'atdagi (sport ustalari, san'at ustalari,).

Vatanparvarlik tuygusi, tarbiyasi ota-onaga, o'z mahalla, qishlog'iga, noxiya, shaxar, viloyat, jumhuriyatiga bo'lган cheksiz muhabbatdan, uning tarixi va madaniyatiga bo'lган mislisiz va tengsiz hurmat va sadoqatdan boshlanadi.

Vatan tuygusi kichkina odam kuz ungida kurayetgan narsadan kayil kolishda, uni xayratlantiradigan va kalbida aks sado beradigan narsalardan boshlanadi.

Kattalarning vazifasi bola oladigan ko'plab taasurotlardan unga eng tushunarli bo'lганларини: eng yaxshi kishilarni, jona-jon ulka tabiatи va hayvonot dunosi, kishilarning xalq farovonligi, Vatanning gullab yashnashi yo'lidagi mehnati, urtoklik, uzaro yerdam va boshkalarni tanlab berishdan iboratdir.

Jona-jon ona tabiat Vatanga muhabbatni tarbiyalashning kuchli omillaridan hisoblanadi. Uning g'o'zalligi bilan zavqlanish, tabiat dunyosiga ehtiyotkorona munosabatda bo'lishdan, inson mehnatining tabiatdagi o'zgaruvchanlik rolini tushuntirishgacha – jonajon o'kaga muhabbatni shakllantirishning manbalaridir.

Bolalikda jonajon tabiat haqida hosil qilingan yorkin taassurotlar inson xotirasida bir umrga saqlanib qoladi. Chunki uning obrazlarida Vatan o'z ifodasini topgan bo'ladi. Odam Vatanga bo'lgan muhabbatni o'zi tug'ilgan va o'sgan oilasi, bolalar bog'chasi, maktabi bolalar bilan o'ynadigan o'yinlari va joylari bilan bog'laydi

Vatanga muxabbat – eng chukur ijtimoiy hislardan biridir. Bu his mакtab yoshdagи bolalarda kattalar tomonidan bolar ruxiy taraqqiyotini va ular tafakkurining aniq va obrazligini e'tiborga olgan holda ma'lum izchillik tarbiyalab borish lozim. Shuning uchun bu yoshdagи bollarda Vatanga muxabbat hissini ularga yaqin va tanish bolgan aniq faktlar, yorqin misollar orqali tarbiyalab boriladi.

Kichkina guruhda Vatanga muxabbat xissi o'z uyiga, bog'chasiga, tarbiyachiga muhabbatni tarbiyalashdan iboratdi bo'ladi. Bolalar ota-onalari va pedagoglar ularga qanday g'amho'rlik qilayotganini ko'radilar va his etadilar. Natijada bolalarda ularga bo'lgan muxabbat yanada ortadi, ularning g'amho'rligi va himoyasiga ishonch xosil qiladilar.

Vatanparvarlik va baynalmillalchilik axlokiy tarbiyada aloxida urin tutadi.

Xadisi sharifda Vatanni sevmok iymondandir, deb bejiz aytilmagan.

Tarbiyachi va o'qituvchilar bolalarda Vatanga muxabbat, faxrlanish, xalq yutuqlaridan faxrlanish, uning dushmanlariga nafrat tuygularini tarbiyalashlari maqsadga muvofikdir.

Vatanparvarlik ruhda tarbiyalash va uni shakllantirishda:

1. Ona-Vatanga muxabbat, uni sevish, e'zozlashga urgatish;
2. Mustaqil o'zbekiston tushunchasining mohiyatini o'quvchilar ongiga singdirish;
3. Yoshlarni xalqimiz an'analariga, udumlariga, tili va madaniyatiga, ruxiyatiga xurmat bilan qarashga o'rgatish;
4. Buyuk ajdodlarimiz qoldirgan ma'naviy meroslarni asrab avaylash, ularning tarixini bugungi kun uchun ahamiyatini idrok etish;
5. Yoshlarda soglom kuch, soglom tafakkur, iymon-e'tikodni uyg'otish;
6. Vatan oldidagi mas'uliyat, milliy manfaat uchun kurashning moxiyatini anglash;
7. o'quvchilarda unib o'sgan yurtga, voyaga yetkazgan ota-onasiga, ta'lim-tarbiya bergen ustoziga ta'zim qilish malakasini shakllantirish lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYETLAR:

1. Goziyev E. Psixologiya T. 1994
2. Munavvar A.K. Pedagogika T. 1996
3. Yusupova P. Maktabgacha tarbiya pedagogikasi T. 1992
4. Maktabgacha ta'lrim jurnali 1999 №1 Xalq ta'limi jurnali 2000 №2, 5
5. «Ma'rifat» ruznomasi 199№ 4, 8; 1998 mart
6. Karimov I. Ollox kalbimsizda, yurt, yuragimizda T. 1999